

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEZAYTISHLAR VA UNING BOLA NUTQINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Elmurod Jumayev

ATMU Filologiya kafedrasi dotsenti

Qo'chqorova Sevinch Sherali qizi

qochqorovasevinch755@gmail.com

ATMU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. *Bu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishda tez aytish mashqlaridan foydalanish kichik yoshdagi bolalarning nutqida kuzatiladigan so'zlarni to'g'ri talaffuz qila olmaslik , tovushlarni o'rnini almashtirib talaffuz qilish kabi kamchiliklar va bularni bartaraf etishning ko'plab mashq va usullar kabi masalalar xususida so'z yuritiladi.*

Kalits so'zlar. *Tovush , bog'in va so'zlar , tezaytishlar , bolaning xotirasi, diqqat , usul , mashq.*

Abstract. *This article discusses the use of tongue twister exercises to eliminate speech deficiencies in primary school students. It addresses common speech problems observed in young children , such as incorrect pronunciation of words , omission of sounds , or substitution of one sound for another , as well as various exercises and methods for overcoming these difficulties.*

Keywords. *Sound , syllable and words , tongue twisters , child,s memory , attention , method , exercise.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается использование скороговорок для устранения речевых недостатков у учащихся начальных классов. Освещаются распространенные речевые проблемы, наблюдаемые у детей младшего возраста , такие как неправильное произношение слов , пропуск звука друции , а также различные упражнения и методы их устранения.*

Ключевые слова. *Звук слог и слова скороговорки речевой аппарат память ребенка внимание метод упражнение.*

KIRISH. Boshlang'ich sinf davri - bolaning nutqi , tafakkuri va psixik jarayonlari eng jadal rivojlanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning og'zaki va yozma nutqi shakllanib , tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish , so'z boyligini oshirish , fikrini ravon v izchil bayon etish ko'nikmalari mustahkamlanadi. Shu jarayonda nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vositalardan biri tez aytishlardir.

Asosiy qism:

Tez aytishlar - ma'lum tovush, bo'g'in yoki so'zlarning tez v aniq talaffuz qilinishiga asoslangan nutqiy mashlardir.Ular bolalarning nutq apparatini [til, lab, jag' , nafas olish organlari]

faol ishlashga undaydi hamda tovushlarni to'g'ri va ravshan aytishga o'rgatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez-tez uchraydigan tovushlarni tushirib qoldirish , tovushlar o'rnini almashtirib talaffuz qilish , ayrim harflarni noto'g'ri aytish kabi nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda tez aytishlar juda katta ahamiyatga ega.

Tez aytishlar bolaning nafaqat talaffuzini , balki xotira, diqqat va tafakkurini ham rivojlantiradi.Chunki tez aytishni yodlab olish, uni tez va xatosiz aytishga harakat qilish jarayonida bola diqqatini jamlaydi , eslab qolish qobiliyati kuchayadi va nutqiy tezkorlik hosil bo'ladi.Shu bilan birga , tez aytishlar bolalarda nutqqa bo'lgan qiziqishni oshirib, dars jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi.

2-sinf uchun mo'ljallangan "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida tez aytishga oid musobaqasi shartlari quyidagilar:

- 1.Tez aytishlarni yaxshilab o'qib chiqing
- 2.Ovoz chiqarmay aytib ko'ring
- 3.To'g'ri nafas oling
- 4.Tez aytishlarni bir nafasda ayting
- 5.Partadoshingiz bir nafasda aytgan tez aytishlaringizni hisoblab tursin.

Qo'zichog'im qo'ng'irig

qo'ng'iroqli qo'zichoq

qurilishga terak kerak

demak ekmoq kerak terak

Bu kabi musobaqalarning dars davomida o'tkazilishi o'quvchilarning qiziqishlarini yanada oshiradi va tez aytish mashqlari bilan ko'proq shug'ullanishga

undaydi.

Boshlang'ich sinflarda tez aytishlardan to'g'ri va maqsadli foydalanish o'qituvchidan metodik mahoratini talab etadi. Tez aytishlar o'quvchilarning yosh va nutqiy imkoniyatlarni hisobga olgan holda tanlanishi, oddiydan murakkabga qarab o'rgatilishi lozim. Avval sekin sur'atda, keyin asta-sekin tezlashtirib aytirish orqali bolalarda to'g'ri talaffuz malakasi shakllantiriladi. Guruh bilan yakka tartibda yoki o'yin shaklida o'tkazilgan tez aytish mashqlari yanada samarali natija beradi. Tez aytishlar orqali bolalarda **artikulyatsiya**, **diksiya** va **intonatsiya** malakalari bosqichma-bosqich rivojlanadi. Tez aytishlar bolaning eshitish xotirasi va nutqiy tafakkuri rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Namunalar.(ko'chirmalar)

Pedagog olimi N.M. Aksarina bu borada quyidagilarni ta'kidlaydi:

"Agar nutq mashqlari o'yin bilan uyg'unlashtirilsa, bolalarda nutqiy faollik va qiziqish yanada ortadi"[1].

Masalan, "Shoshqaloq Shokir shirin shakar sochdi " sh" tovushini mustahkamlashda samarali hisoblanadi.

Mashhur pedagog K.D. Ushinskiy bolalar nutqini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining ahamiyatini alohida ta'kidlab, shunday deydi:

"Xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish bolaning nafaqat nutqini, balki tafakkurini ham rivojlantiradi"[2].

Shuningdek, o'zbek folklorshunos olimi T. Mirzayev ta'kidlaganidek:

"Xalq og'zaki ijodi janrlari yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashning eng ta'sirchan vositalardan biridir"[3].

Termin mazmunining izohi:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish jarayonida qo'llaniladigan terminlar ilmiy-pedagogik mazmunga ega bo'lib, ular o'zbek lingvistik tizimi asosida izohlanadi. Tilshunos olim A.Nurmonovning ta'kidlashicha:

"Termin mazmunining aniqligi nutq jarayonida tushunish va o'zlashtirishni yengillashtiradi"[4].

Tez aytishlarning fonetik jihatdan moslashuvi. O'zbek tilining fonetik tizimi tovushlarning aniq va barqaror talaffuzi bilan xarakterlanadi. Tez aytishlar aynan ushbu fonetik xususiyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tilshunos G' .

Abdurahmonov bu borada shunday deydi: "Fonetik mashqlar nutq apparatining faoliyatini faollashtiradi va tovushlarning adabiy talaffuz me'yorini mustahkamlaydi"[5].

Tez aytishlarning morfologik jihatdan moslashuvi.

Tez aytishlar tarkibida o'zbek tilining morfologik tizimiga xos bo'lgan so'z turkumlari va grammatik shakllar keng qo'llaniladi.

Tilshunos olim D.Xudoyberganova quyidagilarni ta'kidlaydi: "Bolalar nutqida grammatik shakllarning to'g'ri qo'llanilishi morfologik ongning shakllanishiga xizmat qiladi".[6].

Fonetik va morfologik jarayonlarning uzviy uyg'unligini ta'minlaydi. Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish grammatik shakllarni aniq ifodalashga yordam beradi. O'zbek tilshunosligida bu holat quyidagicha izohlanadi:

"Fonetik aniqlik grammatik ma'noni to'liq anglashga xizmat qiladi"[7].

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda , tez aytishlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega.Ular bolaning tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishi ,so'zlarni aniq va ravon aytishi hamda og'zaki nutq madaniyatini rivojlantirishga fonematik eshituv qobiliyati , nutq tozaligi , xotirasi va diqqat e'tibori rivojlanadi shu bois tez aytishlardan dars jarayonida muntazam va maqsadli foydalanish bolaning nutqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Takliflar. 1. Boshlang'ich sinf darslarida tez aytishlardan nutqni rivojlantirish vositasi sifatida muntazam foydalanish tavsiya etiladi.

2. Tez aytishlar o'quvchilarning yosh va nutqiy imkoniyatlariga mos holda tanlanishi lozim.

3. Tez aytishlarni o'yin , musobaqa va jamoviy mashg'ulotlar orqali o'rgatish dars samaradorligini oshiradi.

4. Talaffuzi qiyin tovushlarga oid tezaytishlardan nutq nuqsonlarini bartaraf etishda foydalanish maqsadga muvofiq.

5. O'qituvchilar tomonidan tez aytishalar asosida mashqlar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga jalb etish tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X.
Ona tili o'qitish metodikasi.-
Toshkent: o'qituvchi, 2015.
2. Yo'ldoshev J. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi.
-Toshkent: Fan, 2018.
[Boshlang'ich yoshdagi bolalarning psixologik va nutqiy rivoji haqida]
3. Mahmudov N.
Til va nutq. - Toshkent:
O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.
[Nutq madaniyati va talaffuz masalalari]
4. Yo'ldoshev H. "Kompyuter lingvistikasi asoslari". Toshkent: Fan, 2021. [24-31 bet.]
5. Abdug'aniyeva M. "O'zbek terminologiyasi taraqqiyoti." - Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2020. [57-63 bet].